



XOSIYAT RUSTAMOVA SHE'RIYATINING LINGVOPOETIK XUSUSIYATLARI

*Namangan davlat pedagogika instituti
Ijtimoiy fanlar fakulteti O'zbek tili va
adabiyoti yo'nalishi UZB-AU-25 guruhi
talabasi*

Matkomilova Gulhida

Ilmiy rahbar

Ibragimova Irodaxon

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Annotatsiya: Mazkur maqolada Xosiyat Rustamova she'rlarining lingvopoetik xususiyatlari tahlil qilinadi. Xosiyat Rustamova asarlarining zamonaviy yo'nalishi nuqtai nazaridan talqini ko'rsatib beriladi.

Kalit so'zlar: Lingvopoetika, metaforalar, uslub, ijod.

Xosiyat Rustamova o'ziga xos ovoz va poetik tafakkurga ega ijodkorlardan biridir. U nafaqat mazmun teranligi, balki tilning badiiy imkoniyatlaridan mohirona foydalanishi bilan ajralib turadi. Shoiraning she'riyati inson ruhiyati, ichki kechinmalari, hayot va borliq haqidagi falsafiy mushohadalarini nozik va ta'sirchan ifodalay oluvchi ijodkordir. Xosiyat Rustamova mahoratli shoira ekanligini O'zbekiston xalq shoiri Usmon Azim shoiranin "Najot" nomli kitobiga yozgan so'zboshisida shunday jummalarni keltirgan: "Xosiyat shubhasiz katta shoira. Didi va yuragi bor odam. So'zlari nihoyatda rost, dardli va ajabtovur tarzda samimiy eng muhimi, mukammallikning cheksizligini anglagan va ijod ilohiy ish ekanligini tushungan ijodkor"¹⁷

Har bir yozuvchi she'rlarini jilolantirish uchun hali aytilmagan fikr va falsafiy mushohadalar bilan ziynatlaydilar. Bunda ularning har birida individual belgi sifatida nisbatan ko'p va ho'p qo'llaniladigan nozik ma'nolar ifodalashda xizmat qiladigan "o'z so'zlari" ramzlari bor. Jumladan, Zebo Mirzayevada "tun", Go'zal Begimda "oy", "yurak", Farida Afro'zda "ko'z yoshi", Xosiyat Rustamovada "o'lim", "xazon" shunday so'zlardir. Uning she'riyatida optimistik ruh, real hayot zavqini tuyish ohanglari bilan birga qisman dardmandlik, hazin kayfiyat, tabiiy kuyunchaklik ham sezilarli o'rin tutadi. Bu hol ayniqsa, "o'lim" tushunchasi bilan bog'liq talqinlarda yaqqol ko'rinadi. Shoiraning 113 she'ri o'z ichiga olgan "Najot" to'plamida

¹⁷ <https://erus.uz/index.php/cf/article/download/104/162/179>



“o‘lim” so‘zi 71 marta qo‘llanilgan va turli badiiy estetik funktsiya ado etgan.
“O‘lim ” shoira talqinida ramz, majoziy talqin ifodasidir.

Xosiyat Rustamovaning quyidagi she‘riy parchalariga diqqat qilaylik:

O‘lim yo‘q!!!

O‘lim yo‘q!!!

O‘lim narsa yo‘q narsa,

Faqat og‘ir botar gulu xasliging

O‘lim yo‘q!!!

O‘lim bor bo‘lsa-

O‘lim bu-yashab ham yashay olmasliging

O‘lim qanchalik ta‘riflanmasin, u taqdiri azaldir, ya‘ni barchaning boshida bor. Shoira uchun esa “she‘rlarining o‘zidan avval, o‘lishi hammasidan ayanchli va daxshatli”dir. Shoira ushbu she‘riy parchada o‘lim shunchaki fojia emas, hayotda o‘z o‘rniga ega bo‘lmashlik hamdir. Shoira so‘zlarida o‘lim – ma‘nisiz hayot tarzining ramzi sifatida ishlatilgan.

Xosiyat Rustamovaning she‘riyatida metaforalar, ya‘ni o‘xshatishlar o‘ziga xos talqinga ega.

Nogoh ko‘zlaringda ko‘rdim osmonni

Kipriging jonimga sanchadi muzlar

Azizim, tikilib turmoq osonmi?

Ko‘ zingdan to‘kilib tursa yulduzlar

Shoira ushbu she‘riy parchasida insonning ko‘zlarida butun bir dunyo aks etishini go‘zal tarzda ifodalab bergan. Bu ko‘zlarni butun dunyoga almashtirib bo‘lmaydi. Ammo bu holat inson yaxshi ko‘rgan insonning ko‘zlariga boqqandagina his qiladi. Ko‘zlarini musaffo va shaffofligini qiyoslash bilan metaforadan foydalangan. Ushbu she‘riy parchada lirik qahramon sevgan insonning ko‘zlarida butun dunyoni ko‘ra olishi ifodalangan. Shu misra orqali qahramon yaqin insonning butun bir olamini ko‘ra olgan, osmon so‘zi orqali esa, butun dunyo aks ettirilgan.¹⁸ Ikkinchi misrada esa yorning kipriklari qahramonning joniga muzlar sanchishi, ya‘ni sovuq nigohlar bilan qarashi ifodalangan. Bunday nigohlar inson hafa bo‘lgandagina paydo bo‘ladi. Sovuq nigohlarga qarash, ularga chidash oson ish emas, ayniqsa ko‘zlaridan yulduzlar kabi yoshlar oqib tursa. Qahramon yorning ko‘zlarida butun bir olamni, ya‘ni yorning ko‘zlaridagi dardni osmondagi yulduzlarga qiyoslab, shunday dardli nigohlarga yulduzlar kabi ko‘z yoshlarga “tikilib turmoq osonmi?” deya savol berishi o‘ziga xos lirik “men”ga ega bo‘lishidan dalolatdir.

Nima ham ko‘ribman qirq yil ichida,

¹⁸ <https://api.ziyounet.uz/uploads/books/515373/5cdf9fb56b061.pdf?OroFHcTUmUSFQxIJJWF84>



Yashab ham bo'ldimmi? O, naqadar oz
Ont ichishim mumkink. Bari behuda –
Faqat muhabbatim muhabbat, xolos

Ushbu she'rda shoira, o'z umriga nazar tashlab, qirq yil yashagan bo'lsa ham, uni to'liq yashamagani, juda oz va ma'nisiz hayot kechirganini his qiladi. U ko'p narsalarga, ya'ni boylik, obro', martaba, mashxurlik – barchasiga erishdi, natijada buni o'tkinchi va behuda ekanligini angladi. Oxir oqibat faqat bitta haqiqat qoldi: chin muhabbatgina hayotga mazmun beradi.

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, Xosiyat Rustamova ijodining lingvopoetik tahlili, uning badiiy mahoratini, poetik fikrlash darajasini hamda o'zbek o'zbek she'riyatidagi o'rnini aniqlashda muhim ilmiy ilmiy ahamiyatga ega. Bu esa shoira asarlarini yanada chuqurroq va tizimli ravishda o'rganish zaruratini yuzaga chiqaradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. www.ziyouz.com kutubxonasi
2. Rustamova Xosiyat. Najot: She'rlar. -Toshkent.: "Ma'naviyat", 2003. - 67 bet
3. Rustamova Xosiyat. Najot: She'rlar. -Toshkent.: "Ma'naviyat", 2003. - 68 bet
4. <https://erus.uz/index.php/cf/article/download/104/162/179>